



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



hayotidagi vaziyatlarni osonroq tushunishlari va shu bilan tilni o'rganish samaradorligini oshirishlari mumkin. Kamchiliklari esa, birinchidan, foto materiallarni har :m to'g'ri tanlash va taqdim etish qiyin bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda, suratlar noaniq yoki to'liq tushunarsiz bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ba'zan foto materiallar o'quvchilarga noto'g'ri tushunchalarni berishi yoki ularning e'tiborini boshqa tomonga qaratar ekan, darsning maqsadiga to'liq xizmat qilmasligi mumkin. Shuningdek, ko'plab foto materiallar o'quvchilarda juda ko'p diqqatni jamlashni talab qilishi va bu dars jarayonining samaradorligini kamaytirishi mumkin.¹¹⁸

Xulosa qilib aytish mumkinki, ona tilini o'qitishda foto materiallardan foydalanish o'quvchilarda tilga qiziqishni oshiradi, dars jarayonini jonlantiradi va o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlaydi. To'g'ri tanlangan va metodik jihatdan asoslangan foto materiallar dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarining eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va tilni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'unov B. Til o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. 9–12-b.
2. Qodirova G. Pedagogik texnologiyalar. – Samarcand: Zarafshon, 2021. 27–30-b.
3. Axmedova N. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. // Filologiya va tillarni o'qitish jurnali. – 2022. – №1. 46–47-b.
4. Mamatqulov O. Vizual vositalardan foydalanish metodikasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. 58–63-b.
5. Xolboyeva L. Ona tilini o'qitishda integrativ yondashuv. // Til va adabiyot ta'limi. – 2023. – №2. 24–25-b.
6. Musurov Sh. O'quvchilarni foto materiallar bilan ishlashga o'rgatish. // Ta'lim texnologiyalari. – 2021. – №4. 33–35-b.

SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI

Abduqaxxorova Durdonha Farxod qizi

*ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti
@abduqahhorovadurdon9@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'zning shakliy tuzilishi va unga birikkan qo'shimchalarning semantik-mantiqiy imkoniyatlari hamda nutqiy birlik sifatidagi funksional xususiyatlari chuqur tahlil etiladi. So'zning mazmunini ochib berish, uni maktab o'quvchilariga, ayniqsa, 5-sinf ona tili darslari orqali o'rgatish metodikasi lingvistik va pedagogik nuqtayi nazardan yoritiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida til o'rganish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarda semantik tahlil qilish, mustaqil fikrash, o'z fikrini asosli ifodalash

¹¹⁸ Musurov Sh. O'quvchilarni foto materiallar bilan ishlashga o'rgatish. // Ta'lim texnologiyalari. – 2021. – №4. 33–35-b.



ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shu maqsadda "Jadval", "Klaster", "Moslashtiring" kabi innovatsion metodik yondashuvlarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, ularning samaradorligi va o'quvchilarning bilim faolligiga ta'siri tahlil qilinadi. Metodik yondashuvlarning o'quvchilar bilim :rasini kengaytirishdagi o'rni ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: so'z va uning tarkibi, semantika, "Jadval", "Klaster", "Moslashtiring", metodik yondashuv, o'quvchilar faolligi, ona tili ta'limi.

Аннотация

В статье дается глубокий анализ формальной структуры слова, семантических и логических возможностей его суффиксов, а также его функциональных свойств как единицы речи. Методология раскрытия значения слова и преподавания его школьникам, особенно на уроках родного языка в 5-м классе, рассматривается с лингвистико-педагогической точки зрения. В условиях развития нового Узбекистана совершенствование процесса изучения языка, развитие у студентов навыков семантического анализа, самостоятельного мышления, аргументированного выражения своего мнения считаются актуальными задачами. С этой целью анализируется применение в учебном процессе инновационных методических подходов, таких как «Таблица», «Кластер», «Адаптация», их эффективность и влияние на познавательную активность студентов. Подчеркивается также роль методических подходов в расширении знаний студентов.

Ключевые слова: слово и его структура, семантика, «Таблица», «Кластер», «Адаптация», методический подход, деятельность учащихся, обучение родному языку.

Abstract

The article provides a deep analysis of the formal structure of the word, the semantic and logical possibilities of its suffixes, as well as its functional properties as a unit of speech. The methodology of revealing the meaning of the word and teaching it to schoolchildren, especially in native language lessons in the 5th grade, is considered from a linguistic and pedagogical point of view. In the context of the development of new Uzbekistan, improving the language learning process, developing students' skills in semantic analysis, independent thinking, and reasoned expression of their opinions are considered urgent tasks. For this purpose, the application of innovative methodological approaches in the educational process, such as "Table", "Cluster", "Adaptation", their effectiveness and impact on students' cognitive activity is analyzed. The role of methodological approaches in expanding students' knowledge is also emphasized.

Keywords: word and its structure, semantics, "Table", "Cluster", "Adaptation", methodical approach, student activity, teaching native language.

Tilni sistemali o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularning lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrini aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinni qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

Ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni osayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va



darsliklar yaratish davr talabi. Aynan shu nuqtayi nazardan o'quvchilarga bilim berishning yanada takomillashga yo'llari, ya'ni yangi metodik usullardan foydalanish ham davr talabiga aylanib ulgurgan. [1: 4]

Shunday ekan, biz o'z ustimizda ishlagan holda yangi usullar orqali so'zning semantik tarkibini o'qitishning usullarini ko'rib chiqamiz.

2017-yilda nashrdan chiqarilgan 6-sinf darsligining 1-choragida "Morfologiya" bo'limi ta'limini boshlashdan avval 15 soat morfemika va so'z yasalishi mavzulari uchun dastur hamda darslikda vaqt ajratilgan. Bunda, asosan, quyidagi mavzular: "So'z tarkibi haqida umumiy ma'lumot", "Qo'shimchalarning ma'no vazifasiga ko'ra turlari", "So'z yasovchi qo'shimchalar", "Tub va yasama so'zlar", "Shakl yasovchi qo'shimchalar", "So'zning morfologik tarkibi", "So'z tarkibida tartib", "So'z tarkibi va so'z yasalishi bo'yicha tahlil tartibi ustida ishslash" mavzulari berilgan. Ularning o'qitish usullarini ko'rib chiqamiz.

"*Jadval*" usuli o'quvchilarning aqliy faoliyatini tezlashtirishda, ularning zehnini yanada o'tkir qilishda hamda ularning qay darajada tez qaror qabul qila olishlarini tekshirish va oshirishdagi eng qulay usullardan biridir. Ayniqsa, bir-biridan farqli bo'lgan tushunchalarni ajratishda jadval usuli juda katta yordam beradi. Topshiriq shunday bo'ladi: Quyidagi so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating hamda jadvalga moslab joylashtiring.

So'zlar: *gullar, o'quvchi, maktabda, uyning, suvga, paxtakor, o'yinchoq*

| ASOS | QO'SHIMCHA |
|--------|------------|
| gul | -lar |
| o'quv | -chi |
| maktab | -da |
| uy | -ning |
| suv | -ga |
| paxta | -kor |
| o'yin | -choq |

Topshiriq. Berilgan so'zlardan bir morfemali, ikki morfemali, uch morfemali so'zlarni topib jadvalga moslab yozing.

Afsungar, egarchi, onamga, gullar, bog'bon, xato, sokinlik, va'zzxonlik, ma'muriyatçilik, kutubxonachilik, suvoqchilik, duradgorlik, qishloqlarda, gullarimga, kabobpazlik.

| T/r | Bir morfemali so'zlar | Ikki morfemali so'zlar | Uch morfemali so'zlar |
|-----|-----------------------|------------------------|-----------------------|
| 1 | | <i>Va'zzxonlik</i> | <i>qishloqlarda</i> |
| 2 | <i>egarchi</i> | <i>duradgorlik</i> | |
| 3 | <i>gullar</i> | | <i>gullarimga</i> |
| 4 | <i>onamga</i> | | |
| 5 | | <i>kabobpazlik</i> | |
| 6 | | | <i>suvoqchilik</i> |
| 7 | <i>afsungar</i> | | |




Ushbu usul mavzu tushuntirilgandan so'ng, uni mustahkamlayotgan davrda bajarilishi tavsiya etiladigan usul hisoblanadi. Bu yordamida o'quvchilar asosni qo'shimchadan ajratishni o'rganadilar. Natijada, asos va qo'shimcha ajratilganda qanday holatda bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

"Klaster" metodi. "Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchilar bilan yakka tartibda va guruh asosida ham tashkil etish mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni toppish imkoniyatini yaratadi.

Metoddan foydalanganda quyidagi shartlarni bajarish talab etiladi:

- Mavzuga nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qog'ozga muhrlang;
- Yozuvning orfografik yoki boshqa jihatlariga e'tibor qaratmang;
- Muayyan tushuncha :rasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari suring va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsating.

Topshiriq. *Bog'* so'ziga qo'shish uchun bilan birgalikda qo'llash mumkin bo'lgan affikslarni keltiring.



"Matn ustida ishslash" usuli yordamida o'quvchilarning yozma nutqini oshirish mumkin. Umuman olganda, matn ustida ishslash orqali o'quvchi nafaqat yozma nutqiy qobiliyatini oshiradi, balki avval o'rgangan bilimlarini sinashi ham mumkin. Ya'ni berilgan topshiriqqa mos ravishda o'ylab mulohaza qiladi va topshiriqni to'g'ri bajarishga harakat qiladi. Bunda o'quvchi ham o'laydi, ham tezkorlikda bajarishga harakat qiladi. Natijada, bilimlari sinaladi va tezkorligi oshadi.

Topshiriq. Berilgan so'zlardagi qo'shimchalarni to'g'ri ajrating va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Afsungar, egarchi, onamga, gullar, bog'bon, sokinlik, va'zzonlik, ma'muriyatçilik, kutubxonachilik, suvoqchilik, duradgorlik, qishloqlarda, gullarimga.

Afsun+gar / Ertaklardagi afsungarlar ko'pincha yovuz obrazlarda bo'lishadi.

Egar+chi / Otlarga egar yasovchilarni egarchi deyishadi.

Onam+ga/ Onamga quvonchli xabarni yetkazish uchun shoshildim.

Gul+lar/ Gullar qanday turli bo'lmasin, ular go'zalligi bilan inson ko'nglini xushnud aylaydi.



Bog'+bon / Bog'bon bog'ning go'zal bo'lishidagi eng asosiy sababchi edi.

Sokin+lik / Ko'ngildagi g'alayonlar tufayli ba'zida isnon sokinlik qadrini u qadar yaxshi anglaydiki, har kahzada unga intilib yashaydi.

"Moslashtiring" usuli yordamida har bir o'quvchining qay darajada mavzu yuzasidan bilimni puxta egallaganligini ko'rish mumkin. Ya'ni ikki ustunda berilgan tushunchalarning bir-biriga mos ekanligini bilish uchun avvalo, bu mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Negaki, mavzu yaxshi o'zlashtirilgan bo'lsagina, o'quvchida o'ziga ishonch bo'ladi va topshiriqni bajara olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Topshiriq. Sizga ajratib berilgan asos va qo'shimchalarga diqqat qiling va ularni bir-biriga moslab bitta so'z hosil qiling.

| | |
|--------|-------|
| O'quv | -soz |
| Xazina | -do'z |
| Vazifa | -paz |
| Paxta | -miz |
| Osh | -bon |
| Zar | -ch |

"Mantiqiy chalkash zanjir" metodi. Ushbu metodda tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlik yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. O'quvchilarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat.[2: 211]

Topshiriq. Berilgan tushunchalardagi qatnashgan noto'g'ri ma'lumotlarni to'g'rilar yozing va zanjirni qayta tiklang.

Gap – qo'shimcha – so'z – matn – morfemika – so'z birikmasi

Qo'shimcha – so'z – morfemika

Bu topshiriqda xato berilgan tushunchalar *matn va gap so'z birikmasi* edi. Negaki, morfemika bo'limi, ya'ni so'z tarkibida ushbu tushunchalar ishtiroy etmaydi. Bu bo'limda ma'lumotlar faqatgina so'z va qo'shimcha haqida gap boradi.

"O'rin almashtirish" usuli. O'quvchilarning qay darajada ijodkor va bilimlaridan qay darajada to'g'ri foydalana olishlarini ko'rsatib beruvchi metod hisoblanadi. Bunda o'quvchilar qo'llariga berilgan tarqatma materiallari yoki doskada ilingan ko'rgazmali qurollarda berilgan qoliplar yordamida so'zlar hosil qiladilar.

Topshiriq. O'quvchilar berilgan asos va qo'shimchalar o'rnini almashtirib, turli so'zlar hosil qiladilar. Qo'shimchalarni har :m almashtirganlarida yangi-yangi misollar topishlari kerak. Metodik usul shu tarzda davom etadi. To'g'ri misol keltirgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

1. Asos + so'z yasovchi + lug'aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi
Kitobxonlarni



*2. So'z yasovchi + asos + lug'aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi
Bexabarlarini*

O'zbek tilida so'z yasalishining semantik, fonetik, abbreviatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya kabi usullari mavjud. Bu usullar davriy nuqtayi nazardan ikki guruhni tashkil qiladi: 1) tarixiy (dioxron) uasalish: semantik, fonetik, abbreviatsiya, kompozitsiya usullari; 2) zamonaviy (sinxron) affiksatsiya usuli.

"O'rin almashtirish" usuli. Ushbu usul o'quvchilarning nafaqat bilimini tekshirish uchun bir sinov, balki ularning tezkor harakat qila olish qobiliyatini ham sinovdan o'tkazuvchi hisoblanadi.

Bunda so'z tarkibining qolipi doskada ko'rsatiladi. Ya'ni o'quvchilar asos va qo'shimchalar o'rnini almashtirib, turli so'zlar hosil qiladilar. Qo'shimchalarni har :m almashtirganlarida yangi-yangi misollar topishlari kerak. O'yin shu tarzda davom etadi. To'g'ri misol keltirgan o'quvchilarga rag'bat kartochkalari beriladi.

1. Asos + so'z yasovchi

2. So'z yasovchi + asos

"Matn ustida ishslash" bu usulda o'quvchilar o'zlari egallagan bilimlarini amaliy sinashlari va ko'nikma hosil qilish uchun uni mustahkamlashlari mumkin. Natijada ularning mavzu yuzasidan egallagan bilimlari xotirasida muhrlanib qoladi va yozma nutqlari yanada yaxshilanadi.

Topshiriq. Berilgan matndan sodda yasama so'zlarni aniqlang va ularagi so'z yasovchi qo'shimchalarni ajrating.

*Bozorchilar qatorida xaltani ochib, mayizimni maqtab-maqtab o'tirdim.
Bozorni kezib bozorlik qildim. Ko'chaning narigi betidagi baliqxonaga o'tdik.
Navbatga turib, bir kilo baliq oldim. Ichkarida choyxonachi bilan baliqpaz ko'rindi.*

Namuna: bozorchilar – bozor+chi+lar. Bunada so'z yasovchi qo'shimcha - chi. Ot so'z turkumidan ot yasagan.

"Breyn ring" o'yini. Bu o'yin intellektual faoliyatni shakllantiruvchi o'yinlar sirasiga kiradi. Unda har birida 5-6 nafardan o'quvchi bo'lgan 2 tadan 5 tagacha bo'lgan jamoalar qatnashishi mumkin. O'qituvchi har bir guruhg'a qisqa javobli savollar beradi. Agar ishtirokchilardan biri brinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu ishtirokchiga beriladi va har bir to'g'ri berilgan javobga ochkolar guruhiga taqdim etiladi. O'quvchi xohlagan vaqtida javob berilshni to'xtatса bo'ladi. Agarda to'xtatmasdan bir savolga xato javob bersa, butun yig'ilgan ballari kuyib ketadi. [6]

Topshiriq. Berilgan so'zlardan so'z yasovchi qo'shimchalarni ajrating.

Ixtirochi, guldon, suhbatlashmoq, ixtiro, tinim, qisqich, to'g'ri, gul, ixtirochilik, tinmoq, qisilmoq, tindirmoq, noto'g'ri, to'g'rilanmoq, tinimsiz, guldor, gulchilik Ushbu so'zlar guruhlardan tanlab olingan o'quvchilarga beriladi. Ular javob berishdan o'ylanmasdan tezkorlik va aniqlik bilan javob berilshlariga to'g'ri keladi.

"Breyn ring" o'yini orqali o'quvchilarda tezkorlik, hozirjavoblik, fikrni aniq ifodalash qobiliyatlari hamda ma'uliyatni his qilishni shakllantirish mumkin.

"Qo'shimchalar diktanti" usuli. Bu usul o'quvchining yozma nutqini shakllantirishda hamda o'rganilgan bilimlariga ko'ra misollar keltira bilish




qobiliyatini kuchaytirishda eng qo'l keladigan usul hisoblanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan qo'shimchalar aytildi va o'quvchilar diktantni tugatgach, har bir qo'shimchaga mos ravishda yangi so'zlar yozib chiqishadi.

Namuna:

| | |
|-------|--------------|
| -chi | o'quvchi |
| -lik | samarqandlik |
| -dosh | sinfioso |
| -kor | paxtakor |
| -do'z | do'ppido'z |
| -soz | soatsoz |

"Rasmdan aniqlang" usuli. Ushbu usulda o'quvchilarga doskada rasmlar taqdim etiladi va ushbu rasmlar orqali faoliyat nomi aniqlanadi. Natijada faoliyat nomini topilgandan so'ng yasama so'zlar tarkibida ishtirok etgan so'z yasovchi qo'shimchalar ajratiladi.



Namuna: 1-rasm "Paxtakor" - kor

2-rasm "Do'ppido'z" – do'z

3-rasm "Soatsoz" – soz

Qo'shma so'zlarni o'qitish yuzasidan ayrim usullarni ko'rib chiqamiz.

"Sovg'alar qutichasi" usuli. Ushbu usul boshqalaridan shunisi bilan farq qiladiki, bu usulni amalga oshirishda, musiqa fani bilan integratsiya qilinadi.

Maktabda o'qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o'quv fanlarning o'zaro uyg'unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha fodalanishning ahamiyatini chuqur anglab yetmog'imiz har bir pedagog va tarbiyachi o'zining kundalik pedagogik faoliyatini o'z fani :rasida fanlararo aloqani amalga oshirishga yo'naltirish zarur va muhim masalalar tarkibiga kiradi.

Ulug' didaktik olim Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". I.V.Pestalossi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla" – deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfiliini ta'kidlaydi. [3: 39]



Shunga ko'ra, qutichaning ichiga yasama so'zlar qog'ozchalarga yozib solinadi. O'qituvchi tomonidan musiqa qo'yiladi va o'quvchilar zanjir holatida qutichani bir-birlariga uzatishni boshlaydilar. Xohlagan vaqtida musiqa to'xtatiladi va uni olgan o'quvchi ichidan bir so'z tanlaydi hamda uni asos va qo'shimchalarga ajratib, uni tahlil qiladi. Shu tarzda o'yin davom etadi.

Bu yordamida o'quvchilar katta qiziqish bilan o'zlarining navbatini kelishini kutishadi va dars davomida quvnoq kayfiyat hukm suradi.

"Grammatik tahlil" usuli. Ushbu usul o'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish, uni yanada mukammal tarzda rivojlantirish uchun juda qo'l keluvchi usullardan hisoblanadi. Bu metodni asosan mustahkamlash darslarida qo'llash ko'proq samara beradi. Negaki, o'quvchi tahlil qilish uchun, avvalo, mavzuni to'liq o'zlashtirgan va mustahkmlagan bo'lishi zarur. Agarda bu qoidaga amal qilinmasa, ushbu usulni qo'llash hech qanday samara bermaydi.

Grammatik tahlil uchun, masalan, quyidagi gap berilgan bo'lsin: *Biz bu kunlarga osonlik bilan yetib kelmadik.*

Berilgan gapdagi so'zlar avvalo so'z tarkibi bo'yicha tahlil qilinadi. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- gapdagi har bir so'zning asl ma'noli va grammatik ma'noli qismlari ajratiladi;
- yasalgan so'z bo'lsa, asos va yasovchi qo'shimchaga ajratiladi;
- shakl yasovchi qo'shimchalar aniqlanadi;
- imlo bilan bog'liq tomonlar izohланади. [4: 233]

"Moslashtiring" usuli yordamida har bir o'quvchining qay darajada mavzu yuzasidan bilimni puxta egallaganligini ko'rish mumkin. Ya'ni ikki ustunda berilgan tushunchalarning bir-biriga mos ekanligini bilish uchun avvalo, bu mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Agarda mavzu yaxshi o'zlashtirilgan bo'lsagina, o'quvchida o'ziga ishonch bo'ladi va topshiriqni bajara olish imkoniyati paydo bo'ladi.

| | |
|--------|--------|
| Mehnat | do'st |
| Mehmon | sevar |
| Oliy | parvar |
| Inson | janob |
| O'rın | boqar |
| Kunga | bosar |
| Qo'l | qop |

"Svetofor" usuli. Ushbu usul asosan 5-6-sinf o'quvchilari uchun mosroq bo'lib, bunda o'quvchilarining ziyrakligi, hozirjavobligi, bilimining qay darajada kuchli mustahkamlanganligi va vaziyatga moslashuvchanligini tekshirish mumkin.

Buning uchun xuddi svetofor ranglarida dumaloq shakllar kesib olinadi va sindf o'quvchilariga hech qanday tartibga amal qilinmagan holda har xil qilib tarqatiladi. O'quvchilarga tayyorlanishlari uchun buyruq beriladi. Har bir rang egalari



o'z-o'zidan uch guruhgaga bo'linib qolishadi va ularga topshiriq beriladi. Ushbu metoddan foydalanishning afzallik tomonlaridan yana biri shundaki, gurhlar aynan o'qituvchi tomonidan shakllantirilmaydi, balki o'quvchilar o'zlari bilmagan holida guruhlarga ajralishadi. Bunda esa o'quvchilarda tug'ilishi mumkin bo'lgan noxush holatlarning oldi olinib, shaffoflikka amal qilinadi.

Topshiriq sifatida shuni aytishimiz mumkin. Masalan, qizil rangdagi o'quvchilar ot so'z turkumiga oid bo'lgan qo'shma so'zlarni, sariq rang egalari sifat so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlarni, yashil rangdagi o'quvchilar esa fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlarni ketma-ketlikda aytishlari kerak bo'ladi.



Test usuli. Test – shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatlari, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart mashqlar. Ijtimoiy amaliyotda test odamning qanday kasb-hunar egallashi mumkinligi, uning kasbga layoqati yoki layoqatsizligini, iste'dodli yoki aqli zaifligini aniqlashda, muayyan hamkorlikdagi faoliyatga shaxslarni saralashda keng qo'llaniladi. Uning yordamida tajribaning ilmiylik darjasni, kafolatligi, tekshiriluvlarning mahorati, qiziqishi, to'plangan amaliy ma'lumotlarning haqqoniyligi, ishonchlilik ko'rsatkichi bir necha mezonlarga asoslanib tahlil qilinadi. [5]

Shunday ekan, o'quvchilar uchun mustahkamlash darslarida mavzu yuzasidan test olish foydadan xoli emas.

Test

1. So'zlar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?
 - a. 2 turga
 - b. 3 turga
 - c. 4 turga
2. Mehnat so'ziga quyida berilgan so'zlarni qo'shish yordamida qo'shma so'z hosil qiling.
 - a. Sevar
 - b. Do'st
 - c. Ko'rар
3. Ko'ngilochar so'zi qaysi so'z turkumiga oid?
 - a) Ot
 - b) Sifat
 - c) Olmosh



| | |
|---|-----|
| MASALASI | |
| <i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i> | 597 |
| <i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i> | 603 |
| <i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i> | 605 |
| <i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR T AHLILI</i> | 614 |
| <i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i> | 620 |
| <i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i> | 626 |
| <i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i> | 630 |
| <i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i> | 635 |
| <i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i> | 638 |
| <i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI T AHLILI</i> | 646 |
| <i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i> | 651 |
| <i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDADA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i> | 656 |
| <i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i> | 661 |
| <i>Israelova Z. XORIJLIK TALABALARING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i> | 664 |
| <i>Komilova Lola Nosilloyevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i> | 670 |
| <i>Axmadaliyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i> | 677 |
| <i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOYILLARI</i> | 682 |
| <i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i> | 689 |
| <i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i> | 693 |

